

ALLANAZAR ABDIEVNING “AYYEMGI QARAQALPAQLAR” (QADIMGI QORAQALPOQLAR) ROMANIDA FOLKLOR MOTIVLARINING QO‘LLANILISH XUSUSIYATLARI

Qaypbergenova Azada,
Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18785577>

Annotatsiya. Ushbu maqolada A. Abdievning “Umr, o‘lim va umr” romanining birinchi kitobi – “Ayyemgi qaraqalpaqlar”da qo‘llanilgan folklor motivlari va ularning qahramonlik dostonlaridan farqli jihatlari, muallifning motivlarga qanday poetik funktsiya yuklagani tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. Folklorizm, motiv, folklor motivlari, qahramonlik dostoni, roman, folklor motivlarining poetik funktsiyasi.

Аннотация. В данной статье анализируются особенности использования фольклорных мотивов в первой книге романа А. Абдиева «Жизнь, смерть и жизнь» — «Древние каракалпаки», их отличия от героических дастанов, а также то, какую поэтическую функцию автор возлагает на эти мотивы.

Ключевые слова: фольклоризм, мотив, фольклорные мотивы, героический дастан, роман, поэтическая функция фольклорных мотивов.

Abstract. This article analyzes the specific features of using folklore motives in "Ancient Karakalpaks", the first book of A. Abdiev's novel "Life, Death and Life". It examines their differences from heroic epics and explores how the author assigns poetic functions to these motives.

Keywords: folklorism, motive, folklore motives, heroic epic (dastan), novel, poetic function of folklore motives.

Kirish. Folklor yozma adabiyotda qayta yashashi mumkin. Buni folklorshunoslikda folklorizm deb atashadi. Ya’ni yozma adabiyot vakillari, shoir yoki yozuvchilar, xalq og‘zaki ijodi asarlaridan ilhomlanib, ularni o‘z asarlarida qayta ishlaydi yoki o‘zgartiradi. Shunda u o‘zining tabiiy og‘zaki muhitidan chiqib, yangi shaklda “ikkinchi umri”ni boshlaydi. Zamonaviy adabiyot, san’at, teatr, kino, ommaviy madaniyat shakllari yoki ta’limda qaytadan qo‘llanilib, yangi funktsiyalarda namoyon bo‘ladi.

Olim Q. Maqsetovning “Folklor va adabiyot” mehnatida folklor bilan yozma adabiyotning bog‘liqligi haqida ikki xil tendensiya borligini ta’kidlab o‘tadi:

1. Folklori adabiyotning ayrilmas sohasi sifatida qarab, asarlardagi xalqiylik tendensiyasini kuchaytirishda material sifatida foydalanishini qo‘llab-quvvatlash;
2. Folklor bilan yozma adabiyotning bog‘liqligiga e’tibor bermay, uning ahamiyatini tushiradi [1, 3].

Yozma adabiyot va folklor doimo bir-birini to‘ldirib boradi. Folklor namunalari yozuvchilarning turli poetik funktsiyalardan mahorat bilan foydalana olishiga bog‘liq. Folklor janrlari (ertaklar, dostonlar, maqol-matallar, afsonalar va h.k.) adabiy asarlarda obrazlar, syujetlar, motivlar, lisoniy vositalar va uslubiy xususiyatlar orqali qo‘llaniladi. Yozuvchilar milliy g‘oya va xarakterlarni chuqurroq ochish, asarga o‘ziga xoslik va milliy ruh bag‘ishlash, universal mavzularni mahalliy kontekstda ifodalash uchun foydalanadi,

bu esa asarni boyitadi va xalqning madaniy qiyofasini jonlantiradi. Hozirgi adabiy jarayondagi mualliflarning ko'pchiligi olim keltirgan birinchi tendensiyaning asos qilib oladi.

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotshunoslikda yozma adabiyot va folklor aloqasini tadqiq etish muhim yo'nalish sanaladi. Olim Q. Maqsetov "Folklor va adabiyot" asarida folklorizmning yozma adabiyotdagi o'rnini xalqiylik tendensiyasi bilan bog'lab o'rgangan. Shuningdek, G. Begmurovning tadqiqotlarida mustaqillik davri qoraqalpoq romanlaridagi folklorizmlar masalasi maxsus tahlil qilingan. A. Abdievning "Ayyemgi qaraqalpaqlar" romani bo'yicha amalga oshirilgan tahlillar esa janr xususiyatlari va an'anaviy doston motivlarining zamonaviy prozadagi badiiy transformatsiyasini, qahramon obrazini yaratishdagi funktsionalligini ochib berishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tarixiy, tizimli tahlil va deskriptiv (tavsifiy) metodlardan foydalanildi. Metodologiyaning asosi sifatida A. Abdievning "Ayyemgi qaraqalpaqlar" romani syujeti "Alpomish", "Qoblan", "Edige" kabi qahramonlik dostonlari bilan qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqotda folklor motivlarining yozma matndagi poetik funksiyalarini aniqlashda qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligidagi nazariy qarashlarga tayanildi. Roman matnidagi botirning tug'ilishi, voyaga yetishi, pir tomonidan qo'llanishi va otga berilgan ta'riflar doston elementlarining badiiy qayta ishlanishi nuqtayi nazaridan tizimli ravishda o'rganildi.

Natijalar va muhokama. A. Abdievning "Umr, o'lim va umr" romanining birinchi kitobi – "Ayyemgi qaraqalpaqlar" asarida ham yuqorida biz sanab o'tgan maqsadlarda turli folklor janrlarining poetik funksiyalaridan foydalanilgan. Romanda: 1) qahramonlik dostonlaridagi folklor motivlarini; 2) terme-to'lg'ovlarni; 3) afsona va rivoyatlarni; 4) urf-odat qo'shiqlarini; 5) kichik folklor janrlari – maqol-matallarni ko'rishimiz mumkin va bularning har birining o'z poetik funksiyasi bor. Biz ushbu maqolamizda qahramonlik dostonlaridagi folklor motivlarining ko'rsatilgan romanda qanday berilganligini va poetik funksiyasini aniqlashtirib o'tmoqchimiz.

Syujet Massagetning Qo'ng'iroq arisi qiyot qabilasining ko'semi Oq Alp Saqning o'g'li Qoratas-Qayroqning botir sifatida tug'ilib, kamolga yetishi, uning voyaga yetishi hamda botirlik mashqlarini bajarib o'sishi bilan boshlanadi. Barcha qahramonlik dostonlarida botirlarga shu tarzda ta'rif beriladi. Bu yerda muallif "Alpomish", "Qoblan", "Edige" dostonlaridagi botirlarning tug'ilishi, g'ayritabiiy xususiyatlar bilan voyaga yetishi kabi motivlarni qo'llaganini ko'rishimiz mumkin. Biroq yozuvchi A. Abdiev botirning karomatli belgilar bilan tug'ilish jarayonini bayon qilib o'tirmaydi. Bu romanning asosiy bosh qahramoni Qoratas-Qayroq emasligidan darak beradi. Lekin shunga qaramay, Qoratasning botirlik sifatlarini folklordagi Alpomish, Qoblanlar kabi ta'riflaydi:

"U bolaligidan boshlab ot minib, 'ko'kbo'ri' o'yiniga tushib, musobaqalarda qatnashib, ko'zga tushib kelyapti. O'spirinlikka yetishi bilan jangovar mashqlarda yurdi. Piyoda, otliq qilichbozlik, nayzabozlikdan boshlab, ikki yuzli oybolta va qalqonda

harakatlanish, qo'llash mahoratlarini, mudofaadan boshlab hujumga o'tish mashqlarini o'tadi. Chopib kelayotgan ot ustida qilichbozlik, nayzabozlikda ham, ot ustida borayotib oldindagi, ortdagi, yondagi dushmani yoydan otib tushirishda ham, chopib borayotgan ot yonida, qornida tura olishdan tortib, otning qornidan aylanib, qayta egarga qo'nishgacha bo'lgan usullarni qunt bilan o'rgangan: ot ustida pichoqdek (chaqqon) harakatlanadi" [3, 27]. Alpomish, Qoblan, Edigelarning ham botirlik sifatlari, jangovar san'atni egallashi, o'zi yashayotgan hududning eng yetakchi azamati bo'la olishi tasvirlanadi.

Qahramonlik dostonlarida botirni ideal, hech qanday kamchiliksiz tasvirlash an'anasi bor. Chunki xalq necha yillar davomida dostonlardagidek qahramon-botirlarni romantizatsiya qilib kelgan, shuning uchun ham jirovlar ularni yuksak sifatlar bilan ta'riflaganlar. Hatto yonidagi ikkinchi darajali obrazlarga ham (suyukli yori, jo'ra-yo'ldoshi, mingan oti) aqllilik, sadoqat, donishmandlik, mardlik kabi sifatlarni singdirgan. Masalan, Alpomishning oti Boychibor yilqilarning ichida sarasi, qaylig'i Gulparchin esa aqlli, vafoli va go'zallikda tengi yo'q qiz. Bular botir obrazining yanada ideallashuviga olib keladi. Dostonlardagi ushbu xususiyatni yozuvchi Qoratas botir obraziga ham jamlagan. Qoratasning qaylig'i Qorako'z, uning oti Boychibor ham tengsiz etib tasvirlanadi. Muallif Qorako'zni turli badiiy tasvir vositalari bilan oshirib ta'riflamasa-da, uning aqlli va farosatli ekanligini syujet davomida aniqlashtirib beradi. Oti Boychiborga (Qorako'zning ham oti tasvirlanadi, oti "Tori". – A.Q.) esa quyidagicha ta'rif beriladi:

“Ikkalasining oti ham yuzdan yuyrik, mingdan chiqqan tulporlardan. Qoratasning Boychibor otli qarabayiri Jilqishi ota mingan yilqilar avlodidan ekan. Chopqir, quvvatli, yirik gavdali, uzun bel, suvsizlikka, ochlikka chidamli, tozimli, urushga o'rgatilgan, qayirmlil-qayimshil, qattiq chopib kelayotib birdan jalt qayrilib qolish, ortga tez burilishmi, yovni va uning otini tishlash, tepish kabi haqiqiy jangovarlikka xos xususiyatlar bo'yida bor tulporlardan” [3, 29].

“Ot yigitning yo'ldoshi” deganlaridek, botirning botirligi otining holatiga ham bog'liq. Qahramonlik dostonlarida otga ham jangovarlik sifati yuklanib, botirni ko'plab qiyin vaziyatlardan olib chiquvchi, himoya qiluvchi qilib tasvirlanadi. “Ayyemgi qaraqalpaqlar” romanida obraz sifatida ko'tarilmagan bo'lsa-da, botirning hamrohi sifatida beriladi. Bu ham qahramonlik dostonining janriy motivlaridan foydalanilganidan darak beradi. Alpomishning Boychibori, Qoblaning Tori oti, Edigening Sariola oti kabi Qoratasning ham yigitlik yo'ldoshi Boychibori bo'ladi. Bu Qoratasning obrazi va xarakterini yaratishda an'anaviy motivlarga suyanilganligining belgisi sanaladi.

Shuningdek, qahramonlik dostonlarida botirlarning bo'yida ilohiylik, tabiatdan tashqari kuchlarning ta'siri bo'ladi. Botirning ilohiy piri yoki qo'llovchi ruhi bo'ladi. Masalan, “Alpomish” dostonida voyaga yetgan Alpomishning bo'yiga botirlikni quyuvchi, u qiynalganda qutqaruvchi, to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi piri – Jayilgan bobo bo'ladi. Yozuvchi A. Abdiev ham romanda Qoratasning ko'ngliga nur quyuvchi pir haqida bayon

qiladi. Pir kelganidan so‘ng, botirning vujudida o‘zgarishlar: kuch, intilish kabi sifatlar ortadi:

“So‘ydan adirga ko‘tarila boshlagan Qoratasning ko‘ziga oppoq kiyimdagi, oppoq soqolli qariyaga o‘xshash nurli sharpaga ko‘rindi-da, uni o‘rab oldi. O‘zining tula badaniga issiq taft kirib, boshidan boshlab butun taniga, yurak, jigar, buyrak, ichaklarigacha, qo‘l-oyog‘iga, barmoq, tirnoq va tovonigacha yoyilganini sezdi. Nur tafti juda yoqimli, lazziyatli edi, yigit behush holda, ko‘zi yumilib, yuzi yorishib, jilmayib, o‘zining beholgina sekinlik bilan o‘t ustiga qulab borayotganini angladi.

Bu yotishda qancha yotdi, yodida yo‘q, o‘ziga kelganida atrofni qop-qorong‘u tun qoplay boshlagan g‘ira-shira vaqt ekan, o‘zining bu yerga g‘ira-shiradan bir muncha vaqt oldin kelganini biladi” [3, 92].

Biroq aynan shu yerda A. Abdievning ijodiy yondashuvini sezish mumkin. Bu pir faqat botir Qoratasga emas, balki uning qaylig‘i Qorako‘zga ham ilohiy nur bo‘lib keladi. Bu asosiy syujetning Qoratasdan Tumar (Tomirisga, asarda shunday beriladi. – A.Q.) obraziga o‘tayotganligidan darak beradi. Chunki ushbu voqeadan so‘ng Qorako‘z homilador bo‘lib, undan Tumar ismli botir qiz tug‘iladi. Bunda biz yozuvchining ijodiy munosabat bilan yondashganini ko‘ramiz. Shuningdek, qahramonlik dostonlaridagi yana bir element — botir tug‘ilishidan oldin uning onasi yo‘lbars yuragiga yerik bo‘lishidir. Bu folklor motivi bo‘lib, yangi tug‘ilajak botirning kuch-qudratini, sifatini oshirib ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi. Romanda ham botir qiz Tumarga shunday sifatlarni yuklash uchun qahramonlik dostonining ushbu motivi asos bo‘lgan:

“— Yurak kerak... — Yurak! Mening yuragimmi? — deydi Qoratas hayron bo‘lib. — Yo‘q, yangi so‘yilgan yo‘lbarsning issiq yuragini yegim kelyapti. Juda havas qilyapman. Aytmayin desam ham, sabrsizlik qilib, chidamay aytdim, og‘asi. Seni qiyin ahvolda qoldiryapman...” [3, 96].

Xulosa. Yuqoridagi sifatlar muallifning folklorning doston janri elementlaridan uch maqsad yo‘lida foydalangan degan xulosaga kelishimizga asos bo‘ladi:

- Syujetni qurish va rivojlantirish maqsadida;
- Obraz yaratish uchun;
- Asar arxitektonikasini (kompozitsiyasini) qurish maqsadida.

Dostonning bunday janriy belgilarining barchasi asta-sekin yangi botir qiz — Tumarning dunyoga kelishigacha bo‘lgan syujetni bayon qilishda foydalanilgan. Bu Qoratas va Qorako‘zlarning xarakter xususiyatlarini ochib berish bilan birga, Tumar qiz obrazining yaratilishiga sharoit yaratib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Максетов Қ. Фольклор ҳам адабият. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1975.
2. Бегмуратова Г. Ғарезсизлик дэўири қарақалпақ романларында фольклоризмлер. Дисс.жумысы. Нөкис, 2019.
3. Әбдиев А. Әйемги қарақалпақлар («Өмир, Өлим хэм Өмир» дилогиясының биринши китабы). Роман. Ташкент, 2025.